

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.2. 553.4.(622.3)

XOTAMOV JAVOHIR ABDUSHAROP O‘G‘LI

**KON-GEOLOGIYA SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY
XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Ixtisoslik: 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisod fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy
darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. A.A. Yadgarov

TOSHKENT – 2025

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I Bob.	Kon-geologiya sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy va uslubiy asoslari.....	12
1.1.	Barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy jihatlar.....	12
1.2.	Sanoatning kon-geologiya korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	26
1.3.	Kon-geologiya korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy jihatlar.....	42
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	54
II Bob.	Kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash holati va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	56
2.1.	Kon-geologiya sanoati rivoji va "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili.....	56
2.2.	"Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarishida iqtisodiy xavflarni baholash va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.....	70
2.3.	Kon-geologiya sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida baholash.....	85
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	102
III Bob.	Kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	105
3.1.	Kon-geologiya korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda xorijiy tajribalardan foydalanish.....	105
3.2.	Kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	120
3.3.	Kon-geologiya sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning prognoz senariylarini ishlab chiqish.....	136
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	160
	Xulosa.....	162
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	165

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon hamjamiyatini tahlikaga solayotgan turli xavf-xatarlarning ortishi ta'sirida iqtisodiy xavfsizlik choralarini ko'rish hamda tashqi tahdidlardan iqtisodiy himoyalaniş mexanizmlarini ishlab chiqish davr talabiga aylanmoqda. Xususan, "tog'-kon sanoati jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi o'ta jiddiy ahamiyatga ega ekanligini hisobga olganda, sanoatning katta qismini tashkil etuvchi 40 ta eng yaxshi tog'-kon kompaniyalarning daromadi 2022-yilda rekord darajadagi 943 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Tog'-kon sanoatining sof foyda marjasi 2010-yildagi 25 foizdan 2022-yilga kelib 14 foizgacha kamaydi"¹. Shu jihatdan, kon-geologiya korxonalari faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolarning yildan-yilga ortib borayotganligi, ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun zarur bo'lgan xom ashyo resurslari hajmining kamayishi, obyektlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarasiz foydalanish holatlarining mavjudligi, import qilinadigan xom ashyo resurslari narxining o'sishi turli iqtisodiy darajadagi xavflarni bartaraf etishga e'tibor berishni talab qiladi.

Dunyo davlatlari o'z oldilariga bevosita kon-geologiya sanoat korxonalarini ustuvor darajada rivojlantirish asosida ishlab chiqarishni samarali tashkil etishni, iqtisodiy rivojlanishi shu asosda taraqqiy ettirishni asosiy maqsad qilib belgilab olganligi, biroq, buning kon-geologiya korxonalari faoliyatida yuzaga kelayotgan turli xavf-xatarlarga ham bog'liq ekanligi ayni haqiqat. Kon-geologiya sanoati korxonalari faoliyatida yuzaga kelayotgan turli xavf-xatarlar, xususan, tashkiliy va iqtisodiy xavf-xatarlarning takrorlanib turishi, ishlab chiqarish jarayonida ishchi xodimlarning belgilangan xavfsizlik qoidalariga amal qilmasligi, jahon miqyosidagi nobarqaror vaziyat, eksportyor korxonalarning to'lov qobiliyati darajasining pasayishi kon-geologiya korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi pasayishiga ta'sir ko'rsatayotgan ta'sirchan moliyaviy-iqtisodiy

¹ <https://www.statista.com/statistics/759972/mine-production-titanium-minerals-worldwide-by-country/>

mexanizmlar asosida takomillashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga erishishda iqtisodiy xavflarni bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda «O‘zbekiston-2030» strategiyalarida “Sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish zarurati alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo‘lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltinni - 1,5 barobar, kumushni - 3 barobar, uranni - 3 barobar oshirish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlashda sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash orqali moliyaviy jihatdan barqarorligini oshirish zaruratini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 20- sentyabrdagi PQ-3947-son “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to‘g‘risida” gi, 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2752-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risidagi 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-xalqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kon-geologiya korxonalari ishlab chiqarishida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar D.Link, F.David, Shameli-Sendi, D.G.Baur, N.N.Schulze, Yu.M.Sulejanova, R.Persiun, A.Stratan, A.Timush, E.V.Budumjan, V.V.Mokeev va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari olimlarining sanoat korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash masalalari borasida V.V.Karpova, A.A.Korablevoy, A.E.Gorodetskiy, L.N.Rodionova, M.B.Sultigova, S.A.Grachev, M.A.Gundorova, L.I.Abalkin, V.L.Tambovsev, I.Ya.Bogdanov, M.Ya.Kornilov, Ye.A.Menshikova, Ye.A.Oleynikovalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan⁴.

³ Link, David F., et al. “Management techniques for non-traditional network and information system topologies”. U.S. Patent No. 9,537,731. 3 Jan. 2017.; Shameli-Sendi, Alireza, Rouzbeh Aghababaei-Barzegar, and Mohamed Cheriet. “Taxonomy of information security risk assessment (ISRA)”. *Computers & security* 57 (2016): 14-30.; D.G. Baur, N.N. Schulze, Financial market stability, A test. *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*. 19(3) (2009) 506–519.; Yu.M. Sulejmanova, Management of Economic Stability of an Enterprise in the Process of its Innovative Development, *Journal of Creative Economy*. (2013) 89–95.; R.Perciun, A.Stratan, A.Timush, The methodology of financial stability assessment of Republic of Moldova through macroeconomic indicators, *Procedia Economics and Finance*. (2014) 383–392.; E.V.Budumjan. Development of innovative and investment processes as objective need of modernization of industrial manufacture, *Scientific works of Free economic society of Russia*. (2011) 75–80.; V.V.Mokeev, On enterprise performance evaluation based on the method of eigenstates, *Automatic Documentation and Mathematical Linguistics*. 48(5) (2014) 235–245.

⁴ Карпова В.В., Кораблевой А.А. Теория и практика оценки экономической безопасности (на примере регионов Сибирского федерального округа) / под общ. ред. В.В.Карпова, А.А.Кораблевой. – Новосибирск: издательство ИЭОПП СО РАН, 2017. – 146 с.; Городецкий А.Е. Экономическая безопасность России в эпоху глобальных перемен.//А.Е.Городецкий// Стратегия экономической безопасности России: новые ориентиры развития: Сборник научных трудов I научно-практической конференции «Сенчаговские чтения» ученых, специалистов, преподавателей вузов, аспирантов (Москва, 14 марта 2017 г.). – Москва: Институт экономики РАН, 2017.–265 с.; Родионова Л.Н. Экономическая безопасность как фактор обеспечения конкурентоспособности хозяйствующих субъектов / Л.Н.Родионова // Вестник УГАТУ. – 2013. – Т.17. – №7. – С.61-66.; Султыгова М.Б. Формирование ключевых детерминантов в системе экономической безопасности: проектный подход [Электронный ресурс] / М.Б.Султыгова // Вестник Евразийской науки. – 2018. – №3. Обеспечение экономической безопасности предприятия [Электронный ресурс]: учеб. пособие / авт.сост.: Грачев С.А., Гундоров М.А.; Владим. гос. ун-т им. А.Г.Столетовых. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2022. – 420 с.; Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. Л.Абалкин // Вопросы экономики. 1994. - №12. С. 4-13.; Тамбовцев В.Л. Объект экономической безопасности России // Вопросы экономики. 1994. 12. С. 45-53.; Богданов И.Я. Экономическая безопасность России: теория и практика. -М.: 2001, С.21.; Корнилов М.Я. Экономическая безопасность России: основы теории и методологии исследования: учебное пособие - 2-е изд., стереотип. - Москва: Изд-во РАГС, 2011.- С.18.; Меншикова Е.А. Экономическая безопасность: учеб. пособие / Е.А.Меншикова. - Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2015. –327 с.; Олейникова Е.А. Экономическая и национальная безопасность: Учебник. Под ред. Е.А.Олейникова. – М.: Экзамен, 2005.- С128-130.

Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlik masalalari doirasida, shuningdek, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammolari mahalliy iqtisodchi olimlardan A.E.Ishmuhammedov, X.P.Abulqosimov, A.U.Burxanov, B.O.Tursunov, A.A.Mamatov, H.P.Abulqosimov, S.A.Mamatov, S.Sh.Saidgaziyeva, X.S.Asatullaev, A.A.Mamatov, T.T.Jo'raev, S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, K.A.Tashev, N.Karimov, B.Isroilov, I.S.Xotamov, F.Xamidova, Sh.Saydullayev, J.Jabborov, N.X.Bekmurodovlar⁵ tomonidan tadqiq qilingan.

Yuqoridagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning ilmiy ko'lamiga qaramay, kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-uslubiy jihatlarini tadqiq etish, kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavf-xatarlarini baholash, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari va ularni ta'minlash mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-2019081645-sonli "Iqtisodiy xavfsizlikni baholovchi indikatorlarning chegaraviy miqdorini va ularning dasturiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi (2020-2021yy.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

⁵ Ishmuhammedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, Т.: 2004 й. 420 бет.; Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. "Академия" нашриёти Т.: 2006 й. 212 бет.; Burxanov A.U. Moliyaviy xavfsizlik: o'quv qo'llanma.- Toshkent: "Ma'naviyat", 2019. 244-bet.; Tursunov B.O. "Iqtisodiy xavfsizlik". O'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi", 2021. 344 бет.; Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. 731 бет.; Asatullaev X.S., Mamatov A.A., Jo'raev T.T. Iqtisodiy xavfsizlik (Darslik). - T.: "TMI nashriyoti", 2023. 654 бет.; Ganiyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi.-T.: "Fan va texnologiya", 2017. 372 бет.; Каримов Н., Исроилов Б., Хотамов И., Хамидова Ф., Сайдуллаев Ш., Жабборов Ж. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Монография.- Тошкент давлат иқтисодий университети. – Т.: "Илм-фан ва инновация" нашриёти, 2021 й. 152 бет.; Bekmurodov N.X. Zamonaviy xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlar. Darslik. - Toshkent. Bookmany print, 2023. 426 бет.

sanoatning kon-geologiya korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash;

kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlaridan amaliyotda foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

kon-geologiya sanoati korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ko'rsatkichlarini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalarni aniqlash;

kon-geologiya sanoati korxonalarini iqtisodiy barqarorligini iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida baholash;

kon-geologiya sanoati korxonalarini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Olmaliq KMK" aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibidagi korxonalar faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida mantiqiy fikrlash, qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash hamda ilmiy umumlashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni uni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar sifatidagi asosiy fondlar eskirishining ta'sirini baholash, iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida komplayens-nazorat bo'limlari faoliyatida

iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish, jamiyatning debitor qarzdorlik va tovar zaxiralarining aylanishini tezlashtirish jihatidan takomillashtirilgan;

kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik darajasini “yuqori” ($IXD_{yu} > 7$), “o‘rtachadan yuqori” ($5 < IXD_{o'yu} \leq 7$), “o‘rta” ($3 < IXD_o \leq 5$), “past” ($0,5 < IXD_p \leq 3$), “xavfli” ($IXD_x \leq 0,5$) yangi qiymat shkalalari asosida baholash orqali uning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlovchi imkoniyatlarning maqbul darajalari aniqlangan;

kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini aniqlashda konsolidatsiyalangan koeffitsiyentlar asosida mutlaq, neytral va tanqidiy baholash mezonlari bo‘yicha korxonaning iqtisodiy, ishlab chiqarish, ta’minot, texnik-texnologik ko‘rsatkichlarining o‘sish darajasini intervallarga (0,5–1) ajratgan holda hisobga olish taklifi asoslangan;

“Olmaliq KMK” AJning iqtisodiy xavfsizligini ifodalaydigan asosiy ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari asosida baholash maqsadida, iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida baholash, kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik darajalarini aniqlash va xavfsizlikni ta’minlovchi koeffitsiyentlarga aniq baho berish maqsadida iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyentlarining xavfsizlik darajasini pasaytirish ko‘rsatkichlariga moslash tavsiyasi asoslangan;

kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy mezonlari tahlil qilingan, bu boradagi mavjud jarayonlar aniqlangan;

kon-geologiya korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlaridan amaliyotda foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kon-geologiya sanoati korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va rivojlanish tendensiyalari aniqlangan;

kon-geologiya sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi kon-geologiya korxonalari faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalardan kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish asosida va kon-geologiya sanoatiga ixtisoslashgan korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kon-geologiya korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga doir davlat dasturlari va strategik rejalarni ishlab chiqishda, kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash jihatidan takomillashtirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar va maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kon-geologiya korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni baholash, iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash orqali kon-geologiya korxonalari faoliyatini barqaror rivojlantirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy

o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Sanoat iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda iqtisodiy xavfsizlikning xususiyati va mezonlari bo'yicha turkumlash asosida takomillashtirilgan "kon-geologiya korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik darajasini "yuqori" ($IXD_{yu} > 7$), "o'rtachadan yuqori" ($5 < IXD_{o'yu} \leq 7$), "o'rta" ($3 < IXD_o \leq 5$), "past" ($0,5 < IXD_p \leq 3$), "xavfli" ($IXD_x \leq 0,5$) yangi qiymat shkalalari asosida baholash orqali uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi imkoniyatlarning maqbul darajalarini aniqlash bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 04-fevraldagi 08-0517-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tarmoqning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan;

kon-geologiya sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini aniqlashda konsolidatsiyalangan koeffitsiyentlar asosida mutlaq, neytral va tanqidiy baholash mezonlari bo'yicha korxonaning iqtisodiy, ishlab chiqarish ta'minot, texnik-texnologik ko'rsatkichlarining o'sish darajasini intervallarga (0,5-1) ajratgan holda hisobga olish taklifi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 04-fevraldagi 08-0517-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kon-geologiya sanoati korxonalarida faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik tizimini ta'minlash bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

"Olmaliq KMK" AJning iqtisodiy xavfsizligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2030-yilga